



Boshqaruv Raisi murojaati

Yangilangan sana: Tue, sentabr, 18, 2018

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvi Raisining MUROJAATI

Hurmatli aksiyadorlar, mijozlar va hamkorlar!

Xalq banki Boshqaruvi va jamoasi nomidan Sizning e'tiboringizga 2017 yilda bankimiz tomonidan erishilgan natijalarni havola etamiz

2017 yil yakunlarining ijobiyligi Xalq bankining 2016-2020 yillarda rivojlanish strategiyasida belgilangan bir qator vazifalarning amalda joriy qilinishi samarasi va bank biznesini tubdan takomillashtirish jarayonining davomi, xizmat ko'rsatishdagi universallikni saqlab qolish va uning samarasini oshirish natijasida ekanligini ishonch bilan ta'kidlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bank sohasi rivojlanish dinamikasida Xalq bankining eng yirik banklar qatoridagi o'rnini mustahkamlab qolganini, eng katta filial tarmog'iga egaliga hamda bir qator yo'nalishlardagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'z o'rnini yaxshilab olganini ta'kidlab o'tishimiz joiz.

Bank tizimiga 14 hududiy (viloyat), 184 ta tuman (shahar) filiallari, 28 ta mini-bank, 1 200 ta shaxobchalar, hamda "Xalq sug'urta" va "Xalq invest" sho'ba korxonalaridan tashkil topib, Xalq banki tizimida 8 mingdan ortiq xodimlar faoliyat yuritadi.

Bankning kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida, bankning umumiy kapitalini etarlicha shakllantirish va o'sib borishini ta'minlash, uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash - 2015 yilda ham bankning eng muhim vazifalaridan bo'lib qoldi.

Bugungi kunda Xalq banki O'zbekiston bank tizimida jismoniy shaxslar omonatlari, sof foyda, shaxobchalar va xodimlar soni bo'yicha etakchi hisoblanadi. Shuningdek, bank jami kapital xajmi, qimmatli qog'ozlar savati, jami depozitlar qoldig'i, aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlari bo'yicha birinchi beshlikka kiradi.

Bank tomonidan jismoniy shaxslar uchun omonatlar, yuridik shaxslar uchun har xil shartlardagi depozit sertifikatlari, jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchilarga ko'plab turdagi kreditlar, akkreditivlar bilan amallar, bank kafolatlari berish, hisobraqam ochish va yuritish, milliy va xalqaro plastik kartalar chiqarish va xizmat ko'rsatish, jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi ochish va hisobini yuritish, xalqaro pul o'tkazmalari, lotereya o'yinlari va boshqa bir qator bank mahsulotlari va xizmatlari taklif qilinmoqda.

Rivojlanish strategiyasiga muvofiq 2017 yilda aktivlar, depozitlar, kapital va daromad bazasi miqdori kabi barcha asosiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilishi davom ettirildi.

Hisobod davrida jami aktivlar miqdori 26,3 %ga o'sib, 5 535,2 mlrd. so'mga etishiga erishilindi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha bozordagi o'rnini tijorat banklari orasida 3,32 % ulush bilan 8 o'rinni egallab

kelmoqda. Hisobot yilida kredit qo'yilmalari 29,2 %ga ko'payib, jami 3 040,0 mlrd. so'mni tashkil qildi, natijada 19,6 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Belgilangan maqsadlarga muvofiq, Xalq banki resurslar bozorida o'zining etakchi o'rnini saqlab qoldi. Ya'ni, aholi va xo'jalik yurituvchilar omonatlari xajmi 3 613,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, banklar o'rtasida 6,08 % ulush bilan 5-o'rinni egalladi. Shunday bo'lsada, aholi omonatlari bo'yicha muntazam barqaror ravishda 1-o'rin saqlab qolindi.

Plastik kartalar orqali naqdsiz to'lov tizimini rivojlantirish maqsadida 161,5 mln. dona plastik kartalar muomalaga chiqarildi va natijada naqdsiz to'lovlarning xajmini sezilarli ravishda oshishiga erishildi.

Mijozlarga "Mobil banking", "Internet banking" va FJBPTT ishtirokchilari uchun maxsus "SMS-informer" interaktiv bank xizmatlari ko'rsatilmoqda. Masofaviy bank interaktiv xizmatlaridan jami 17 mingdan ortiq mijozlar foydalanib kelishmoqda.

2017 yilda lotereya faoliyati kengaytirilib, 7 ta turli lotereya o'yinlari tashkil qilinishi natijasida jami 19,3 mlrd. so'm miqdorida sof foyda olindi.

Bankning moliyaviy barqarorligini oshirishning muhim bosqichi sifatida Xalq bankining ustav kapitalini 2015-2017 yillarda 185 mlrd.so'mga oshirib 385 mlrd. so'mga etkazish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 23 martdagi PQ-2325-sonli Qarori xizmat qildi. Hisobot davrida 99 mlrd.so'm kapital qo'yilmalarida aks etdi.

Xalq banki faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichi sifatida yil yakuni bo'yicha olingan sof foyda miqdori 169,1 mlrd.so'mni tashkil qilib, tijorat banklari orasida faxrli ikkinchi o'rinni egalladi.

Kelajakda ham banklar o'rtasida etakchilikni mustahkamlash, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada rivojlantirish maqsadida bank 2015 yilda 2016-2020 yillarda yangi rivojlanish strategiyasini tasdiqladi hamda quyidagi rivojlanishning yangi ustuvor yo'nalishlarni belgiladi:

I. Xalq bankini mamlakatning barqaror va faol moliyaviy tashkiloti sifatida o'rnini yanada mustahkamlash;

II. Xalq bankini eng texnologik, mobil bank, maxsulotlarning ko'p va qulay shakllariga ega bo'lishi uchun zamonaviy texnikalar bilan yangilash;

III. Xalq bankining raqobatbardoshligini ta'minlovchi kuchli xodimlar siyosatini joriy qilish va amalga oshirish;

IV. Bankning moliyaviy samaradorligini oshirish;

V. Samarador informatsion siyosat va brendni ilgari surish;

Ishonchimiz komilki, rivojlanish Strategiyasida belgilangan maqsadlar va vazifalarning amalga oshishi natijasida Xalq banki faoliyatini yangi sifatli darajaga oshirishi va mamlakatning moliya bozorida yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlaydi.

Mazkur imkoniyatdan foydalanib barcha Xalq banki xodimlariga mexnatsevarligi va strategik maqsadlarimizga erishish uchun qat'iyat bilan fidokorona mexnat qilganliklari uchun hamda alohida aksiyadorlarimiz, mijozlarimiz va hamkorlarimizga minnatdorchilik bildiramam.

Hurmat bilan, Boshqaruv Raisi A.Abdullayev

3.06.2018 yil

Xalq banki Boshqaruv Raisi va uning o'rinbosarlarining sayyor qabul o'tkazish jadvali
O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki rahbariyati tomonidan 2018 yilning II yarim yillikda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi shahar va tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslarni sayyor qabul

J A D V A L I

№	Rais va uning o'rinbosarlarining F.I.Sh	Lavozimi	Viloyatlardagi shahar va tumanlar nomi, sayyor qabul o'tkaziladigan sanasi				
			Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr
1.	A.N.Abdullaev	Boshqaruv Raisi	Toshkent shahar Uchtepa tumani 07.07.2018	Navoiy viloyati Xatirchi tumani 4.08.2018	Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 8.09.2018	Sirdaryo viloyati Sirdaryo shahar 6.10.2018	Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 3.11.2018
2.	T.Z.Raxmonov	Raisning birinchi o'rinbosari	Jizzax viloyati Zomin tumani 14.07.2018	Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar 11.08.2018	Toshkent viloyati Chirchiq shahar 15.09.2018	Toshkent shahar Chilonzor tumani 13.10.2018	Andijon viloyati Buloqboshi tumani 10.11.2018
3.	N.R.Abbosov	Rais o'rinbosari	Andijon viloyati Xonobod tuman 21.07.2018	Farg'ona viloyati Beshariq tumani 18.08.2018	Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani 22.09.2018	Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 20.10.2018	Namangan viloyati Toshbuloq tumani 17.11.2018
4.	G'.N.Polvonov	Rais o'rinbosari	Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 28.07.2018	Buxoro viloyati Olot tumani 25.08.2018	Navoiy viloyati Zarafshon tumani 29.09.2018	Xorazm viloyati Xozarasp tumani 27.10.2018	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorauzak tumani 24.11.2018

Files:

Ilova

O'lchami

✘ O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki rahbariyatining 2018 yil I yarim yillik sayyor qabul jadvali [1]	37.53 KB
✘ O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvi Raisining Murojaati [2]	136.68 KB
✘ O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki rahbariyatining 2018 yil II yarim yillik sayyor qabul jadvali [3]	355.78 KB

Links

[1] http://xalqbanki.uz/sites/default/files/page_files/scan.pdf

[2] http://xalqbanki.uz/sites/default/files/page_files/boshkaruv_raisi_murozhaati.pdf

[3] http://xalqbanki.uz/sites/default/files/page_files/sayor_kabul.pdf